

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

“KELISHILGAN”
Oliy va o‘rta maxsus
ta‘lim vazirligi:

_____ 2021 yil
“ ”

“TASDIQLAYMAN”

Samarqand davlat universiteti
rektori:
prof. R. I. Xalmuradov



_____ 2021 yil

5A411702 - SUBTROPİK VA SITRUS MEVA EKINLARI

**MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGIGA
KIRISH SINOVHLARI UCHUN
MAXSUS FANLARDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Samarqand - 2021

Annotatsiya:

Dastur 5A411003 - Uzumchilik va uzumni dastlabki qayta ishlash, 5A411002 - Mevachilik, 5 A411702 - Subtropik va sitrus meva ekinlari, 5A411001 - Sabzavotchilik va polizchilik, 5A411004 — Kartoshkachilik, 5A411005 - Meva-sabzavotchilikda biotexnologiya mutaxassisliklariga kiruvchilar uchun **5411000-Meva-sabzavotchilik va uzumchilik** ta'lim yo'nalishining 2017 yilda tasdiqlangan o'quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzildi.

TUZUVCHILAR:

Normurodov D.S.	-	SamDU, Meva-uzumchilik va sabzavotchilik kafedrası mudiri, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, dotsent
Xolmirzayev B.X.		SamDU, Meva-uzumchilik va sabzavotchilik kafedrası mudiri, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, dotsent
Raximov A.R.	-	SamDU, Meva-uzumchilik va sabzavotchilik kafedrası assitenti, qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Dastur Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi fakultetining 2021 yil 28 iyundagi № 14 sonli Kengash yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan. Universitet Kengashining 2021 yil 30 iyundagi 11-son yig'ilishida muhokama etilgan.

KIRISH

5411000-Meva-sabzavotchilik va uzumchilik ta'lim yo'nalishi - Qishlok, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasidagi yo'nalish bo'lib, u meva va rezavorlar, sabzavotlar, kartoshka va poliz mahsulotlarining kelib chiqishi, tarqalish tarixi, xalq xo'jaligidagi ahamiyati, kimyoviy tarkibi, hozirgi holati va rivojlanish istiqboli hamda tashqi muhit omillariga bo'lgan talabi va soxa istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikma, mo'tassaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

Ta'lim yo'nalishi negizidagi mo'taxassisliklarning vazifasi - talabalar bilimlarini chuqurlashtirish va bog' sharoitida mevalar yetishtirishning ilg'or va innovatsion texnologiyalari to'g'risida, meva va uzumlarni ahamiyati, tashqi muhit omillariga ko'ra guruhlarga ajratish, ko'paytirish usullarini o'rganish, o'simliklarni o'sish va rivojlanish bosqichlarini bilish mevalarni urug'lari hamda ko'chatlari tuzilishi talabani ushbu fan bo'yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini kurs ishi va bitiruv ishlarini bajarish bilan real sharoitida qo'llash bo'yicha ko'nikma hosil qilishdan iboratdir.

5411000-Meva-sabzavotchilik va uzumchilik ta'lim yo'nalishi negizidagi 5A411003 - Uzumchilik va uzumni dastlabki qayta ishlash, 5A411002 - Mevachilik, 5A411702 - Subtropik va sitrus meva ekinlari, 5A411001 - Sabzavotchilik va polizchilik, 5A411004 - Kartoshkachilik, 5A411701 - Himoyalangan yer sabzavotchiligi, 5A411005 - Meva-sabzavotchilikda biotexnologiya magistratura mutaxassisliklariga kiruvchi talabalar uchun ta'lim yo'nalishi O'quv rejasiga asosan 5 ta ixtisoslik fanlari bo'yicha: "Mevachilik", "Uzumchilik", "Sabzavotchilik", "Himoyalangan yer sabzavotchiligi", "Polizchilik" fanlaridan test savollari shakllantirilgan. Bu fanlar o'z negizida qamrab olingan ma'lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

MEVACHILIK fani bo'yicha:

Mevachilik fani va o'simlikshunoslikning tarmogi sifatida. Mevachilik fan va tarmoq sifatida. O'zbekiston Respublikasida meva va rezavor meva o'simliklarini yetishtirishni xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Meva bog'larini davlatlararo va kit'alararo joylashganligi. Mevachilikning dunyo bo'yicha ahvoli. Mevachilikning O'zbekistondagi qisqacha ahvoli va rivojlanish istiqbollari. Meva va rezavor meva o'simliklarining kelib chiqishi, botaniq tarkibi va biologik xususiyatlari. Meva va rezavor meva o'simliklarining kelib chiqishi. Meva va rezavor meva o'simliklarining morfo-biologik guruhlari. Urug'li, danakli, rezavor, yongokmevalar va subtropik mevalarning turlari va botaniq nomlari. Meva va

rezavor meva o'simliklarining yer ustki kismi, hosilga kirishi va yashashiga ko'ra guruhlash. Meva va rezavor meva o'simliklarining tashqi muhit omillariga talabi. Meva o'simliklarining 3tashqi muhit omillariga munosabati. Talabchanligi, chidamliligi, sovuqqa bordoshligi, tolerantligi. Muhit sharoitini harorati, yorug'ligi, havo va to'proq namligini, biologik omillariga munosabati.

Meva va rezavor meva o'simliklarini ko'paytirishni biologik asoslari va meva ko'chatlarini yetishtirish. Meva va rezavor meva o'simliklarini jinsiy (urug'dan) va jinsiz (vegetativ) yul bilan ko'paytirish. Meva ko'chatzorini ahamiyati, vazifalari, tiplari va asosiy kislari. Meva daraxtlari uchun asosiy payvandtaglar. Mevali ekinlar ko'chatini yetishtirish usullari. Meva ko'chatzorini ahamiyati, vazifalari, tiplari va asosiy kislari. Ko'chatlarni yetishtirish uchun joy tanlash.

Meva bog'i barpo qilish va meva ko'chatlari o'tkazish. Meva bog'i borpo qilish uchun joy tanlash va bog' maydonini tashqil qilish. Meva turlari va navlarini tanlash hamda tur va naviga karab daraxtlarni joylashtirish usulini joriy qilish. Bog' meva daraxtlarini joylashtirish usullari va qator oralaridan foydalanish. Bog' uchastkasini rejalash. Bog'larni sug'orish, o'g'itlash va mulchalashning ahamiyati.

Bog' qator oralariga ishlov berish tizimi. Bog'larda yerga ishlov berish sistemasi. Bog' qator oralaridan foydalanish usullari. Qoplama ekinlar (sideratlar) haqida ma'lumot. Begona o'tlarga qarshi ko'rashishda gerbetsidlardan foydalanish. Bog'larni sug'orish va o'g'itlash usullari va me'yorlari.

Meva bog'ida shakl berish va butash usullari. Meva daraxtlariga shakl berish va butashning ahamiyatli jixatlarini, hosildorlikni oshirish omillarini urganish. Meva daraxtlariga shakl berish usullari. Meva o'simliklarini butash davrlari va texnikasi. Palmetta daraxtlariga shakl berish.

Rezavor mevalarning agrotexnik xususiyatlari. Rezavor meva o'simliklarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Qulupnay, qulupnayzorni parvarish qilish, Malina, malinazorlar barpo qilish va Smarodina (Koragat)ni xalq xo'jaligidagi ahamiyati va istiqbollari. Rezavor mevali bog'larni tog'li zonalarda barpo qilish, bog'larni loyihalash va loyiha topshirig'ini tuzish.

UZUMChILIK fani bo'yicha:

Uzumchilikning rivojlanish tarixi, hozirgi holati, istiqboli va ahamiyati, uzum morfologiyasi, biologiyasi va anatomiyasi, uzumni ko'paytirish usullari, ko'chatlarini yetishtirish texnologiyalarining uziga xos xususiyatlari, uzumni yangi yuqori hosilli nav namunalari tavsifi, ekish muddatlari va usullari, uzum mevalarining kimyoviy tarkibi va oziqalik qiymatini, uzumning kelib chiqish makonlari, filogenezi va antog'enezini; uzumni to'proq sharoitiga ko'ra navlarni joylashtirish, yerni ekishga tayyorlashni; uzum ko'chatlarini ekishga tayyorlash va ekishni; uzum ko'chatini ekish qalinligi, oziqlanish maydoni va yuza birligidagi o'simliklar sonini aniqlashni; o'simliklarni sug'orish muddatlari, mikdori va

usullarini; tokzorlarni mineral va organik o'g'itlar bilan oziqlantirishni; tok kasalliklari va zararkunandalariga qarshi kimyoviy hamda biologik usullardan foydalanib ko'rashishni; uzum yetishtirishdagi istiqbolli texnologiyalarini; uzumchilikda seleksiya jarayonlari va nav yaratish texnologiyalarini; uzumchilikda chatishtirish uchun ota-ona juftlari va birlamchi materiallarni to'plash, tok tuzilishi va ayrim o'sish hamda rivojlanish jarayonlarini biologiyasini hamda hosildorligi aniqlash; ularning biologik - morfologik tasnifini bilish; tok navlarini xo'raki, kishmishbop va vinoboplarga ajratish; uzumni o'sish fazalari va davrlari hakida tushuncha; tok o'simliklarni ko'paytirishning biologik asoslarini o'zlashtirishni bilish kerak.

SABZAVOTCHILIK fani bo'yicha:

Sabzavotchilikning hozirgi holati va istiqboli. Sabzavotchilikni mustaqillik yillarida jadal rivojlanish sabablari. Sabzavotlar iste'mol qilinadigan qismi kimyoviy tarkibini o'zgarishiga sabablar va ular tarkibi sifatini yaxshilash usullari. Sabzavotlarni botaniq ta'rifi, xayotini davomiyligiga kelib chiqqan makonlari ta'siri, oziq-ovkatga ishlatilishi bo'yicha guruhlash. Mavjud sabzavot ekinlari morfologik va botaniq tuzilishlarini urganishdan maksad. Issikdik, yorug'lik, namlik, to'proq va havo oziqasi ta'sirida o'simliklar filogenezidagi uzgarishlar. O'sish va rivojlanish bosqichlarini o'tishi davrida tashqi muhit ta'siri. O'sish va rivojlanish bosqichlarini (fazalarini) bir va ikki yillik sabzavotlarda o'tishi uchun zarur buladigan omillar. Ikki yillik sabzavotlarni xayotini birinchi yili gulpoya chiqarishi yoki ikkinchi yili gulpoya chiqarmaslik sabablari. Rivojlanishi davrida xar ikki tur, kup yilliklar uchun yorug'lik va kun uzunligi hamda haroratni ta'siri. To'proq va havo namligini o'simlikni o'sish va rivojlanishiga ta'siri, rivojlanish bosqichida namlikka munosabati.

O'simlik vegetativ va generativ organlarini hosil qilishida, kasallik hamda qurg'oqchilikka chidamli bo'lishida makro va mikro elementlarni ahamiyati. NPK larni to'proqqa solish muddatlari va me'yorlari. Ularni urug'idan va vegetativ usulda ko'paytirishlarning ijobiy va salbiy tomonlari. Vegetativ hamda generativ usulda ko'paytirishning ahamiyati, urug'ni ekishga tayyorlash usullari. O'zbekiston iqlim sharoitida sabzavotlarni ekish muddatlari va usullari, ularni turli muddatlarda ekish sabablari. Ertagi sabzavotlar uchun egatni kuzda tayyorlab qo'yish. Sho'rlangan yerlarni ertagi va kechki sabzavotlar uchun tayyorlashning farqi. Tomatdoshlarni ahamiyati, tarqalishi, tashqi muhit omillariga munosabati va ko'paytirish usullari. Ildizmevalilarni ahamiyati, biologik xususiyatlari va tumanlashtirilgan navlari. Sabzi, turp, osh lavlagi, va boshqalarning kelib chiqqan makoni, harorat, namlik va to'proq oziqasiga munosabat hamda tumanlashtirilgan navlari. Yerni ekishga tayyorlash, ekish muddatlari, parvarish qilish va hosilni yig'ishtirish. Piyoz, uning turlari va sarimsoqni kelib chiqishi, tarkalishi, iste'moldagi va oziq-ovkat sanoatidagi ahamiyati, shifobaxshlik xususiyatlari. Piyozni almashlab ekishdagi o'rni, o'tmishdosh ekinlarga munosabatlar. Ekish

normasi, sxemasi, chukurligi va muddatlari. Begona o'tlarga qarshi gerbitsidlar qo'llash. Qator orasiga ishlov berish, sug'orishlarni uni rivojlanishiga ko'ra to'g'ri taqsimlash. Sarimsoq yetishtirish texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari.

Karam turlarini farqlari, kimyoviy tarkibi, issiqlik, namlik, to'proq va havo oziqasiga munosabati hamda ularni sozlash usullari. Karamni almashlab ekishdagi o'rni, o'tmishdosh ekinlarga munosabati, ekish muddati, to'proq oziqasiga talabchanligi, eqilish qalinligi. Oqbosh va gulkaramni ertagi va kechki muddatlarda yetishtirish texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari. Bodring va sabzavot qovoqchalari biologiyasi, navlari, ekish muddatlari, sxemasi. Bodringni jadal texnologiya asosida yetishtirishning va hosilini yig'ishtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Bodring va sabzavotlar qovoqchalarini o'tmishdosh ekinlarga munosabati, yerni ekishga tayyorlash, ekish muddatlari, urug'ni ekishga tayyorlash, yagona qilish, qatorlar orasiga ishlov berish, oziqlantirish.

POLIZCHILIK fani bo'yicha:

Polizchilikning hozirgi ahvoli va rivojlanish istiqbollari Poliz ekinlarini xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Poliz ekinlarini sanoat darajasida yetishtiriladigan tumanlari. Ishlab chiqarishda foydalaniladigan poliz ekinlari turlari, xillari va navlari. Navlarning to'proq-iqlim sharoitiga talabi. Ko'paytirishni intensiv usullari. Standart navlarini tavsifi. Poliz ekinlarini kelib chiqish vatani, botaniq belgilari, hayotini davomiyligi, iste'mol qilinadigan organlari, ishlab chiqarish hamda boshqa belgilariga ko'ra klassifikatsiyasi va ularni guruhlarga bulish.

Poliz ekinlarini morfo-biologik xususiyatlari va yetishtirish texnologiyasi. Qovun yetishtirish texnologiyasi, ekish usullari va muddatlari, parvarishlash, kasallik va zararkunandalariga qarshi ko'rashish, hosilni yig'ib olish. Tarvuz yetishtirish texnologiyasi, ekish usullari va muddatlari, parvarishlash, kasallik va zararkunandalariga qarshi ko'rashish, hosilni yig'ib olish. Qovoq yetishtirish texnologiyasi, ekish usullari va muddatlari, parvarishlash, kasallik va zararkunandalariga qarshi ko'rashish, hosilni yig'ib olish. Poliz ekinlar ko'chatlarini yetishtirishni zamonaviy texnologiyasi. Nav tanlash. To'proqni tayyorlash, uchastkani rejalash, begona o'tlarga qarshi ko'rashish, sug'orish, o'g'itlash va to'proqni yumshatish. Poliz ekinlarini qator oralariga ishlov berish tizimi. Yerga ishlov berish. Begona o'tlarga qarshi ko'rashishda gerbitsidlardan foydalanish. Poliz ekinlarni sug'orish va o'g'itlash usullari va me'yorlari. Hosilni yig'ib-terib olish muddati ularning turi va nav xususiyatlariga, mahsulotga qo'yiladigan talabga va ular qanday maqsadlarda foydalanilishiga qarab belgilash.

HIMOYALANGAN YeR SABZAVOTCHILIGI fani bo'yicha:

Mamlakatimizda aholini sabzavot mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlashni ahamiyati. Sabzavotchilikni tarmog'ini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar, hukumatimiz farmonlari va qarorlari. «Himoyalangan joy» va

«Himoyalangan joy sabzavotchiligi» tarmog‘i haqida tushuncha, uni ahamiyati. Fanning maqsadi va vazifasi. Himoya qilingan joylarda yetishtiriladigan sabzavotlarni ilmiy asoslangan iste‘mol qilish me‘yorlari. Chet davlatlarda va O‘zbekistonda Himoyalangan joy sabzavotchiligini ahvoli va uni rivojlanishi. Yorug‘likning ahamiyati va issiqxona sabzavot o‘simliklarining unga bo‘lgan talabi. Yorug‘lik o‘simliklar uchun energiya beruvchi manba hisoblanadi. Tarkibida xlorofil bo‘lgan yashil o‘simliklar nurli energiya yordamida organik moddalarni yaratish, to‘plash qobiliyatiga ega. U o‘z navbatida hosilni shakllantirishni ta‘minlaydi. Yorug‘lik yana nafas olish transpiratsiyasi va moddalar harakati uchun sarflanadigan energiya manbai hisoblanadi. Himoyalangan yer inshootlarini qoplashda foydalaniladigan yorug‘likni o‘tkazuvchi materiallar va ularga qo‘yiladigan talablar. Himoya kilingan joy sabzavotchiligida qo‘llaniladigan oynalar, ularning tavsifi. Turli oynalarning ko‘rinadigan, ultrabinafsha va infraqizil nurlarni o‘tkazish qobiliyati. Oynaning salbiy va ijobiy xususiyatlari. Parnik va issiqxonalarini qoplashda qo‘llaniladigan oynalar. Yangi istiqbolli yorug‘lik o‘tkazuvchan materiallar. Yarim qattiq va rulon shaklidagi stekloplastik, ulardan foydalanish. Polimer materiallarni mexanik, fizik xususiyatlari.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 47 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko'ramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 485 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 103 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
6. I.A.Karimov «Erishilgan yutuqlarini mustahkamlab yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim», "Qishloq hayoti gazetasi", Toshkent 2006y. 14 fevral
7. Qishloq xo'jaligida islohatlarni chuqurlashtirishga doir Qonun va me'yoriy xujjatlar to'plami. I-II tomlar, Mualliflar jamoasi, Toshkent, "Sharq" nashriyot matbaa konserni. 1998 y.
8. O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jaligi ekinlari «Davlat Reyestri» Toshkent 2006y.
9. Littl T., Xillz F. Qishloq xo'jaligi dala tajribalari. Kolos, 1989, 319 b. O'quv qo'llanma.
10. Maksimov V.N. Biologiya fanida kup omillik tajriba. Moskva. 1989, 279 b. O'quv qo'llanma.
11. Peregudov V.N. Hosil ashyolarini statistiq ishlov berish yo'llari uslubiyati. Moskva, Kolos, 1988. O'quv qo'llanma.
12. . Morozova G.S, - "Vinogradarstvo s osnovami ampelografii" Moskva VO "Agropromizdat", 1997.
13. Temurov Sh.S. - "Uzumchilik" Toshkent 2002..
14. Bo'riyev X.Ch. - "Havoskor bog'bonlarga qo'llanma" Toshkent 2002.
15. www.gov.uz- O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
16. www.lex.uz- O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
17. [http://www. Agron. planning/](http://www.Agron.planning/).
18. <http://www.bfpais.ru. Plodovodstvo i vinogradarstvo>
19. http://asiaxx.narod.ru/map_admin.htm. Sayt o plodovodstvo, vinogradarstvo, baxchevodstvo Kazaxstana, Kirgizii, Tadjikistana, Turkmenii i Uzbekistana.
20. <http://www.CNSHB.ru. Plodovodstvo Uzbekistana>.

21. <http://uzbekistan.uzpak.uz/F53.html>. Sadı Uzbekistana.
22. Ostonakulov T.E. Zuyev V.I. Qodirxo‘jayev O.K. Sabzavotchilik T., “N.Doba” 2009. (darslik).
23. Zuyev V.I., Ataxodjayev A.A., Qodirxo‘jayev O., Asatov Sh.I., Akromov U.I. Himoyalangan joy sabzavotchiligi. T., “Iqtisod-moliya” 2014. (darslik).
24. Zuyev V.I., Abdullayev A.G. Sabzavot ekinlari va ularni yetishtirish texnologiyasi. T., «O‘zbekiston», 1997. (darslik).
25. Zuyev V.I., Bo‘riyev X.Ch. Qodirxo‘jayev O.K. Azimov B.B. Kartoshkachilik T, «G‘ofur G‘ulom nomli nashiryot-matbaa ijodiy uyi», 2016. (darslik).
26. Bo‘riyev X.Ch, Zuyev V.I., Qodirxo‘jayev O.K., Muhamedov M.M. «Ochiq joyda sabzavot ekinlari yetishtirishning progressiv texnologiyalari» T., “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 2002. (darslik).
27. Azimov B.J., Bo‘riyev X.,Ch. Sabzavot ekinlari biologiyasi. T., «UzMYeDIN» 2002.
28. Nuriddinov A.A., Boqiyev A.B., Bako‘ras N.S va b. Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik spravochnigi. T. 1987.

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING
MAGISTRATURA MUTAXASSISLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI
UCHUN MAXSUS FANLARDAN ABITURIYENTLARNING
BILIMLARINI BAHOLASH MEZONI**

Sinov topshirish shakli	TEST - kompyuterda
Test yechish uchun ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Test savollari soni	50
Har bir to`g`ri javob uchun ball	2
Maksimal ball	100
O` tish bali	55